



TOĞAY MUROD ASARLARIDA LINGVOMADANIY TAHLIL

Allamuratova Zebuniso

TerDU talabasi

Ilmiy rahbar: **D.Ergasheva**

Annotatsiya: maqolada Toğay Murod asarlaridagi lingvomadaniyat, maqol va uning badiiy qudrati va milliy an'analar, xalqning ma'daniy hayoti haqida sòz borgan.

Kalit so'zlar: milliy lingvomadaniyat, maqol, matal, milliy an'analar.

Uzoq tarixiy davrlar mobaynida shakllanib kelgan lingvomadaniyat sohasi alohida fan sifatida XX asrning oxirlarida dunyoga tanilgani ma'lum. Ushbu sohaning shakllanishi va bu sohada izlanishlar, tadqiqotlarning olib borilishi lingvomadaniyatning tarixi hamda nazariy asoslari to'g'risidagi ma'lumotlarning vujudga kelishini ta'minladi.

Lingvomadaniyatning dunyoga kelishi to'g'risidagi tadqiqotlarning barchasida V.Fon Gumbold nomi bilan bog'liq ma'lumotlar keltiriladi. —Lingvokulturologiya termini V.N.Teliya rahbarligida faoliyat ko'rsatib, juda ko'plab ilmiy natijalarga erishgan Moskva frazeologik maktabi nomi bilan bog'liq. Tilshunoslikda lingvomadaniyatning shakllanishi va rivojlanishida A.A.Potebnya, L.Vaysgerber, X.Glints, X.Xolts, E.Sepir, B.L.Uorf, G.Brutyan, A.Vejbitskaya, D.Xaymlar tomonidan ilgari surilgan g'oyalar va ushbu sohaga olib kirilgan yangiliklar ma'lumotlarimizni to'ldirishga xizmat qiladi.



Lingvomadaniyatning asosiy kategoriyalari tilning har qanday belgilarida singdirilgan madaniy ma'lumotlar ifodalanishining milliy òziga xos xususiyatlarini maksimal darajada ochib beradigan tushunchalarni òz ichiga oladi.

Lingvokulturologiya - "til va madaniyat"ning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o'zida aks ettirgan hodisalar - til-madaniyatni birgalikda organadigan alohida ilmiy soha sanaladi. U madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o'rtasida yuzaga kelgan umumlashma fan bo'lib, til va madaniyatning o'zaro ta'siri va bog'liqligi, bu bog'liqlikning shakllanishi hamda yaxlit bir sistema sifatida til va tildan tashqarida aks etishi kabi hodisalarni o'rganish bilan shug'ullanadi. Bir tomondan lingvomadaniyatshunoslikning insoniyatning madaniy til faktoridagi o'rni boshqa tomondan esa, til faktoridagi insonning o'rnini o'rganadi.

Lingvomadaniyatshunoslikning organish obyektiga ko'ra madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlariga birmuncha yaqin, biroq mazmun-mohiyati, o'rganish obyektiga bolgan yondoshuviga ko'ra farqli deb aytish mumkin. Uning chegaralanuvchi maqomi shundan iboratki, u xalq madaniyatining tilda namoyon bolishi handa ifodalanishi, til mentaliteti, milliyliigi, til ruhiyati bilan bog'liq ravishda nutqiy muloqotni tashkil etishdagi milliy-madaniy spetsifik qoidalarni organadi hamda millat madaniyatining tilda aks etgan o'ziga xos milliy til xususiyatlarini aniqlash, tadqiq etish bilan shug'ullanadi.

Ma'lumki, madaniyat tushunchalar sistemasi, muayyan xalqning hayot obrazi, milliy xarakter, milliy mentalitet sifatida keng etnografik mazmun kasb etadi. N.S. Trubetskiyning fikricha: "Madaniy konnotatsiyalarsiz biror so'z bo'lishi mumkin emas, ya'ni qiyosda, solishtirishda qandaydir umumiy qismlar bo'lishi shart". Lison va madaniyatning ana shunday o'zaro yaqinligi va aloqadorligi ularni yagona metodologik asoda organish imkonini berdi. Ya'ni, til va madaniyat. "Til va madaniyat" muammosining organilishida bir qancha yondoshuvlarni belgilash mumkin: birinchi yondoshuv faylasuf olimlar (S.A. Atanovskiy, G.A.Brutyan, E.S.Markaryan)lar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unda



madaniyatning tilga bir tomonlama ta'siridan borliqning o'zgarishi natijasida milliy-madaniy tipiklashtirish va tilda o'zgarish yuz beradi, degan g'oya yotadi?.

Navbatdagi yondoshuda esa bu ta'siming aks tomoni, ya'ni hozirgi kungacha ochiq qolib kelayotgan va munozarali masala - tilning madaniyatga ta'siri masalasini o'rganish maqsad qilinadi. Tilni ruhiy quevat sifatida tushunish bu yondoshuvning asosiy g'oyasi sanaladi. Tilni ruhiy quvvat sifatida tushunish (V.Gumboldt,A.A.Potebnya) asosida Sepir-Uorfning lingvistik aloqadorlik gipotezasi, ya'ni har bir xalq borliqni o'z ona tilisi orgali ko'radi, his etadi, his etganini belgilaydi, degan g'oya yotadi". Bu g'oya keyinchalik, I.L.Vaysgerberning tilni "O'tkinchi dunyo", ya'ni "borliqni anglash", muayyan "mavjudlik va tafakkur" sifatida qaraluvchi g'oyalarida ilgari surilgan.

To'gay Murod asarlarida xalqimizning milliy madaniyati qalamga olingan. "Yaylov", "chavandoz", "kòpkari", "uloq", "isiriq", "o'choq" sòzlari òzbek xalqining milliy madaniyatini ifodalagan. "Chavandozlar tòdaga ot soldi".

Otlarini qimtidir, otlarini tizzalari bilan niqtadi, otlarini qamchiladi, otlarini uloqqa haydadi. Uloq sonsiz ot tuyoqlari orasida qoldi. Qòllar uloqqa talpindi, ammo ololmadi, "Yulduzlar mangu yonadi" qissasida: "Odamlar, Oqjarda kòpkari bòladi! - dedi Nabi oqsoqol. – Ana, uloqni olib ketdi! Xohlaganlar borsin! Eslaringda bòlsin, kechasi olish bòladi, ertaga yana kòpkari!" gaplarida òzbek milliy madaniyati milliy ruhda tasvirlangan. Ayniqsa, Mahmud Koshgariyning "Devonu luğati-turk" asarida "utug"- dazmol(DLT,41-b); andavaga o'zshash temir (uskuna) bo'lib, uni qizdiradilar va kiyimning chok hamda baxyalarini va tuklarini bostirib, silliqalaydilar". "Anduz" (angduz,DLT,59-b) rosan; yerdan qazib olinadigan o'simlik ildizi. Otlarning qorin og'rig'i kasaliga davo bo'ladi. "Anduz bolsa at o'lmas. Ma'nosi: Rosan o'ti yoningda bo'lsa, ot yo'lda qorin og'rig'idan o'lmaydi, ot og'rib qolganda u bilan davolash mumkin"110,-degan ma'lumotlar keltirilgan. Zamonaviy talqinda ham "anduz"o'simligi shoir Azim Suyun she'rida o'z ifodasini topgan:



“Andiz o‘sgan yerlarda otlar bevaqt o‘limg‘ay, Yaxshi bo‘lsa ayollar, erlar yuzi so‘limg‘ay”. Yoki “isiriq” (hazorispan) so‘zi ham “Mahmud Koshgariyning “Devonu lug‘ati-turk” asarida keltirilib, bozorlarda, odamlar to‘planadigan joylarda tutatilishi, shamollash kasalligi, tumov kasalligiga davo ekanligi, ming dardni qaytarishi aytiladi. “Devonu lug‘ati-turk” asarida aytib o‘tilgan isiriq diniy marosimlar, rasm-rusumlarda haligacha ishlatilib kelinadi. Masalan, “yuvg‘uchilar marhumni suvga olishgach, uni taxtaga yotqizib yuzini qiblaga burib qo‘yishadi.

Xonaga isiriq tutatiladi. Bu zardushtiylikda yovuz ruhlarni haydovchi vosita sifatida qo‘llanilgan”¹¹¹. Chaqaloq tug‘ilganda beshikka solish marosimida, yangi uyga ko‘chib kirilganda, kelin tushib kelganda va shunga o‘xshash ko‘pgina marosimlarda isiriq tutatiladi. Uylarga yomonliklarni daf qilish maqsadida isiriq shodalarini osib qo‘yadilar.

Ushbu maqoladan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki har bir millat o‘z tilini o‘rganishida avvalo milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini rasm-rusmlari, an‘analarini bilishini taqazo etadi. Muayyan xalqning tili va folklori, bir tomondan, til egasining umumiy madaniy, ijtimoiy ahamiyatli hayotini aks ettirsa, ikkinchi tomondan, o‘z-o‘zini anglash tuyg‘usi, dunyoqarashini tarbiyalaydi, shakllantiradi. Umuminsoniy qadriyatlar, milliy-madaniy tushunchalar, olamga munosabatning milliy stereotiplashgan shakli til orqali olam tasviriga ko‘chadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 107 Тоғай Мурод. Танланган асарлар. жилд, “Sharq” nashriyati, Toshkent, 2008, B.75. 108 Kўrsatilgan asar. B.7-бет.
2. 109 Маҳмуд Қошғарий. “Дувон луғати-турк”, Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, Тошкент – 2017, B. 41. 110 Кўрсатилган асар. B. 59.
3. 111 Турсунов С.Н, Пардаев Т. Сурхондарё этнографияси. Ўқув қўлланма, www.arxeologiya.uz, B. 88.